



BOLALARDA ROTAVIRUSLAR KELTIRIB CHIQRADIGAN GASTROENTERITLAR KECHISHINING O'ZIGA XOSLIGI

¹Xudoyqulova Moxiistara Baxtiyor qizi,

²Abdurahmonova Saida Alisher qizi

Toshket tibbiyot akademiyasi Termiz filiali davolash ishi fakulteti
2-bosqich talabalari,

³Axmedova Saodat Toshboltayevna

Ilmiy rahbar: "Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va
menejment" kafedrasida katta o'qituvchisi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7728620>

ARTICLE INFO

Received: 04th March 2023

Accepted: 12th March 2023

Online: 13th March 2023

KEY WORDS

Rotavirus, gastroenterit, mikrofaq, RNK, parazit, fekal-oral, virus, diareya, ingichka ichak, invaginatsiya.

ABSTRACT

Bolalarda og'ir gastroenteritning asosiy sababi- Rotaviruslardir. Ushbu maqolada rotavirusdan kasallangan bolalar va ularda bo'ladigan kasalliklar haqida so'z boradi. Bundan tashqari rotavirus oqibatida kelib chiqadigan gastroenteritlar haqida aloxida to'xtalib o'tamiz.

Muammoning dolzarbligi. Gastroenteritlar- Rotavirus keltirib chiqaradigan o'ta yuqumli infeksiya deb hisoblanadi, bu esa o'z navbatida oshqozon, ichak va diareya yallig'lanishiga olib keladi. Ko'pincha bu virus 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga juda faol kechadi. Virus bilan og'riganlarning kasalxonaga yotqizish 35-45 % ni tashkil qiladi. 180000-450000 tagacha bolalarning o'limi asosan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda kuzatiladi. Rivojlangan davlatlarda tibbiyot naqadar rivojlangan bo'lmasin ularda o'lim sababi 90% ni tashkil qiladi. Kasallikni oldini olish uchun sanitariya gigiyena qoidalariga rioya qilish kifoya emas. Ba'zida ushbu virus natijasida ichak invaginatsiyalari vujudga keladi.

Tadqiqot va tekshiruv usullari. Rotavirus ikki zanjirli RNK li virus hisoblanadi. Chaqaloqlarda va bolalarda diareyani keltirib chiqaradigan virusdir. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar hayoti davomida bir marta bo'lsa ham rotavirus bilan kasallanadi. Kattalar virus bilan kamdan kam chalinadilar. Virusning to'qqiz ta turi mavjud. Ular quyidakilar A,B,C,D,F,G,H,I va J turlari. Rotavirus A eng keng tarqalgan virus hisoblanadi ushbu virus bilan zararlanish 90%ni tashkil qiladi.

Virus insonga fekal-oral yo'l orqali yuqadi. Asosan ingichka ichakni qoplaydigan hujayralarga parazitlik qiladi va gastroenteritni paydo qiladi. Ushbu kasallik grippga aloqasi bo'lmasa ham „oshqozon grippi“ deb ataladi. Rut Bishop va hamkasblari 1973-yil rotavirusni elektron mikrografik tasvirlar orqali aniqladilar ammo bu tadqiqotlar sog'liqni saqlash jamiyatida yetarlicha baxolanmadi. Bundan tashqari ushbu virus insondan tashqari hayvonlarda ham parazitlik qilishi isbotlangan. Rotavirusning bolalarga yuqushi quyidakilar fekal-oral, ifloslangan qo'llar va narsalardan foydalanish ehtimol nafas yo'llari orqali ham bo'lishi mumkin. Rotavirusli diareya yuqumli sanaladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining o'tkir gastroenteritli bolalarda suvsizlanishni baholash bo'yicha ko'rsatmalari:



A	B	C
Holati		
Xo'sh, ogohlantirish	Bezovta, asabiy	Letargik yoki ongsiz
Ko'zlar		
Oddiy	Cho'kib ketgan	Cho'kib ketgan
Chanqoqlik		
Odatda ichadi, chanqagan emas	Chanqagan, ishtiyoq bilan ichadi	Yomon ichadi yoki ichishga qodir emas
Terini chimchilash		
Teri tezda orqaga qaytadi	Teri asta-sekin orqaga qaytadi	Teri juda sekin orqaga qaytadi
Qaror		
Suvsizlanish belgilari yo'q	Agar B ning ≥ 2 belgilari bo'lsa, ba'zi suvsizlanish	C da ≥ 2 belgilar mavjud bo'lsa, kuchli suvsizlanish

Letargiya va uyquchanlik bir xil emas. Letargik bola shunchaki uxlamaydi: bolaning ruhiy holati zerikarli va bolani to'liq uyg'otish mumkin emas; bola hushidan ketayotgandek tuyulishi mumkin. Ba'zi chaqaloqlarda va bolalarda ko'zlar odatda bir oz cho'kib ketgan ko'rinadi. Onadan bolaning ko'zlari normalmi yoki odatdagidan ko'ra ko'proq cho'kib ketganligini so'rash foydalidir. Terini chimchilash chaqaloqlar yoki marasmus yoki kvashiorkor bilan og'rigan bolalarda va semiz bolalarda kamroq foydalidir.

Klinik suvsizlanish shkalasi:

Xarakterli	Bal		
	0	1	2
Umumiy ko'rinish	Oddiy	Chanqagan, notinch yoki uyqusirab; teginanda asabiylashadi	Uyquchan, oqsoqlangan va sovuq; komada bo'lishi mumkin
Ko'zlar	Oddiy	Bir oz cho'kib ketgan	Chuqur cho'kib ketgan
Til	Nam	Yopishqoq	Quruq
Ko'z yoshlari	Hozirgi	Kamaytirilgan	Yo'q

Umumiy ball: 0=suvsizlanish yo'q; 1-4=bir oz suvsizlanish; 5-8=o'rtacha/qattiq suvsizlanish.

Gastroenterit bilan kasallangan bolalarni aksariyati Rotavirus-A uchun sinovdan o'tkaziladi. O'tkir rotavirus infeksiyasini davolashda simptomlarni eng muhimi suvsizlanishni oldini olishdir. Agar ushbu holat bartaraf etilmasa bola nobut bo'lishi mumkin. Diareyaning og'irlik darajasiga qarab bemor bolaga dehidratatsiya terapiyasi qo'llaniladi bolaga ma'lum miqdorda tuz yoki shakar qo'shilgan suv va ruh qo'shimchasi bor suyuqlikdan beriladi. Rotaviruslarni davolashda yuqorida aytib o'tilgan chora tadbirlar kasallikni yengish uchun to'la yechim bo'la olmadi shu sababli kasallikni avj olishini oldini olish uchun umum jahonda vaksinatsiya qilish joriy etilgan. Har yili rotavirus juda ko'p davlatlarda diareyaga olib keladi. Ularning deyarli 2,5 millioni shifoxonaga yotqiziladi. 2019 yilda 151 715 nafar besh yoshdan kichik bolalar rotavirus infeksiyasidan vafot etgan va ularning 90 foizi



rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Rotavirus bilan kasallangan o'g'il bolalar qiz bollarga qaraganda 2 barobar ko'p. Rotavirus B kattalarda ADVR deb ataladi asosan ifloslangan ichimlik suvidan kelib chiqadi. Rotavirus B ni qo'zg'atadigan shtamp CAL deb ataladi. AQSH 1998 yilda rotavirusga qarshi vaksina foydalanish uchun litsenziyalangan. AQSH, Finlyandiya va Venesuelada o'tkazilgan klinik sinovlar rotavirus A sabab bo'lgan og'ir diareyaning oldini olishda uning 80-100% samarali ekanligini aniqladi va tadqiqotchilar statistik jihatdan ahamiyatli jiddiy nojo'ya ta'sirlarni aniqlamadi. Ammo ushbu vaksina 12000 chaqaloqdan 1 tasida ichak tutilishiga sabab bo'ldi shu sababli 1999-yil qo'llash to'xtatildi. 2006-yilda 2 ta yangi vaksina bollar uchun samarali va xavfsiz deb topildi va 2009 yilda JSST rotavirus vaktsinasini barcha milliy emlash dasturlariga kiritishni tavsiya qildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda har bir shaxs avvalombor shaxsiy gigiyenaga rioya qilishlari shartdir. Bu virusni oldini olish maqsadida barcha davlatlar va JSST ham bir qancha zarur chora tadbirlarni amalga oshirmoqda.

References:

1. Muhamedov I. M. , Eshboev E. X. Mikrobiologiya, immunologiya, virusologiya. T. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi|| Davlat ilmiy nashriyoti. 2002.
2. Microbiology and Immunology /Faculty of Pharmacy. General Microbiology Immunology .Edition 2015
3. "Mikrobiologiai Laboraturiumi Gyakorlatok 2013
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Rotaviruslar>
5. <https://uz.everaoh.com/rotavirus-simptomlar/>
6. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-97239-1.html?page=11>
7. <https://uz.healthy-food-near-me.com/rotaviruses-what-to-do-and-what-to-avoid-if-a-child-is-infected/>